# FARG‘ONA VILOYATI QUVASOY SHAHAR HOKIMI
# Q A R O R I

2024 - yil 27 - mart 81-11-167-Q/24 Quvasoy shahar hokimligi

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-fevraldagi PF-37-sonli Farmoni ijrosini ta’minlash haqida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-fevraldagi “O‘zbekiston - 2030” strategiyasini “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi PF-37-sonli Farmoni ijrosini ta’minlash hamda “O‘zbekiston - 2030” strategiyasida belgilangan keng ko‘lamli islohotlarni 2024-yilda samarali amalga oshirish, xalqimizning kundalik hayotida ijobiy o‘zgarishlarga erishish bo‘yicha tizimli harakatlarni izchil davom ettirish, “Yashil iqtisodiyot” tamoyillariga asoslangan yuqori iqtisodiy o‘sish sur’atlarini ta’minlash, ekologik holatni yaxshilash, suv va boshqa tabiiy resurslardan unumli foydalanish standartlarini keng joriy qilish hamda Farg‘ona viloyati hokimining 2024-yil 6-martdagi 136-11-Q/24-sonli qarori ijrosini ta’minlash maqsadida,

**QAROR QILAMAN:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-fevraldagi “O‘zbekiston - 2030” strategiyasini “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi PF-37-sonli Farmoni xususida qabul qilingan viloyat hokimining 2024-yil 6-martdagi 136-11-Q/24-sonli qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining mazkur Farmoni bilan:

2024-yil 1-martdan boshlab alohida ishlash talab etiladigan, shuningdek, iste’dodli va iqtidorli yoshlar Mahallalarda yoshlar bilan ishlash masalalarini muvofiqlashtirish bo‘yicha respublika komissiyasi qarori bilan “Yoshlar balansi” asosida vazirlik va idoralar, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari, davlat ishtirokidagi korxona va tashkilotlar hamda oliy ta’lim tashkilotlari rahbarlariga biriktirilganligi;

Yoshlarning salohiyati, iste’dodi va tashabbuslarini to‘laqonli ro‘yobga chiqarish maqsadida “Besh tashabbus olimpiadasi” doirasida:

2024-yil 1-martdan boshlab mahalla, ta’lim muassasalari, korxona va tashkilotlar tizimida mukofot jamg‘armasi 600 million so‘m miqdorida xorijiy tillar *(“Ibrat farzandlari”)* bo‘yicha tanlovlar, kibersport musobaqalari va “Zakovat” intellektual o‘yinlari tashkil etilishi;

Yoshlar ishlari agentligi va mahalliy hokimliklar tomonidan kasblar tanlovida g‘olib bo‘lgan yoshlarni o‘z hududlarida jihozlangan ustaxonalar bilan “Yoshlar daftari” jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan ta’minlash amaliyoti yo‘lga qo‘yilishi;

Yoshlar o‘rtasida tadbirkorlikni keng ommalashtirish va biznes bilan shug‘ullanishga qo‘shimcha imkoniyatlarni yaratish maqsadida:

a) oilaviy tadbirkorlik dasturi doirasida ajratilayotgan kreditlarning kamida 40 foizi yoshlar tadbirkorligini rivojlantirishga yo‘naltirilishi;

b) 2024-yil 1-iyundan boshlab quyidagilarni nazarda tutuvchi “Yosh tadbirkor” tanlovlarini o‘tkazish amaliyoti yo‘lga qo‘yilishi;

Yoshlar ishlari agentligi tomonidan tanlov asosida “mahalla - tuman - viloyat - respublika” bosqichlarida yoshlarning istiqbolli biznes loyiha va g‘oyalari saralanishi bunda, nogironligi bo‘lgan yosh tadbirkorlarning loyiha va g‘oyalariga alohida e’tibor qaratilishi;

respublika bosqichida saralashdan o‘tgan har bir loyihaga bazaviy hisoblash miqdorining 1 000 baravarigacha miqdordagi imtiyozli kreditlar ajratilishi;

g‘olib bo‘lgan biznes loyiha va g‘oyalar egalari Yosh tadbirkorlarni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi hisobidan xorijiy davlatlarga malaka oshirishga yuborilishi;

2024-yil 1-martdan boshlab “Har bir mahalladan ikki nafar dasturchi” dasturi joriy etilishi;

2024-yil 1-martdan boshlab “Yoshlar daftari” jamg‘armasi mablag‘larini yoshlarni chet tillari va kasb-hunarga o‘qitish maqsadlariga yo‘naltirish amaliyoti yo‘lga qo‘yilganligi;

2024-yil 1-maydan boshlab fuqarolar va tadbirkorlik subektlari uchun yangi majburiy to‘lovlar va yig‘imlarni faqatgina qonunda belgilash amaliyoti kiritilishi;

Quyidagilar:

a) 2024/2025-o‘quv yilidan boshlab:

Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrining 1 tadan tumanida (shahrida) sinov tariqasida “Mening maktabim” loyihasi amalga oshirilishi hamda buning doirasida Davlat byudjeti mablag‘lari hisobidan maktablarga bazaviy hisoblash miqdorining 150 barobarida mablag‘ ajratilib, ushbu mablag‘ 5-11-sinf o‘quvchilari tanloviga ko‘ra, elektron doska, kompyuter, sport jihozlari, kitoblar kabi maktablar uchun

zarur tovarlarga sarflanishi;

umumiy o‘rta ta’lim muassasalari direktorlarini menejerlik bo‘yicha sertifikatsiyalash tizimi joriy etilishi, bunda direktorlarga malakaviy talablar aniq belgilanib, ular har besh yilda bir marotaba attestatsiyadan o‘tkazilishi;

b) 2025-yil 1-yanvardan boshlab Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tizimidagi umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida ona tili va adabiyot hamda tarix fanlari bo‘yicha Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Bilim va malakalarni baholash agentligining milliy baholash tizimida olingan tegishli darajadagi sertifikatga ega bo‘lgan va ushbu fanlardan dars beruvchi pedagog kadrlarga ularning tarif stavkasiga nisbatan 50 foiz miqdorida har oylik qo‘shimcha ustama to‘lanishi belgilanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. Keng jamoatchilik bilan muhokamalarda bildirilgan takliflar asosida ishlab chiqilgan “O‘zbekiston - 2030” strategiyasini “Yoshlar va biznesni qo‘llab- quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi doirasida quyidagilar:

2024-yilga mo‘ljallangan yo‘nalishlar kesimidagi amaliy tadbirlar rejalari **1-5-ilovalarga;**

2024-yilda yo‘nalishlar kesimida ishlab chiqiladigan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari ro‘yxatlari **6-10-ilovalarga;**

“O‘zbekiston - 2030” strategiyasini “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid Davlat dasturi ijrosini tashkil etish va nazoratini ta’minlash bo‘yicha shahar Ishchi guruhi **11-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

4. Yoshlar ishlari agentiligi shahar bo‘limi (B.Fozilov), Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (Sh.Tojimamatov) bilan birgalikda kasblar tanlovida g‘olib bo‘lgan yoshlarni o‘z hududlarida jihozlangan ustaxonalar bilan “Yoshlar daftari” jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan ta’minlash amaliyotini yo‘lga qo‘yish choralarini ko‘rsin.

5. Shahar hokimining o‘rinbosari (A.Mamajonov), Mahallalar uyushmasi shahar bo‘limi (I.Dadaboyev), Yoshlar ishlari agentiligi shahar bo‘limi (B.Fozilov), Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi (E.Toshbekov) tegishli mas’ullar bilan birgalikda 2024-yil 1-martdan boshlab “Har bir mahalladan ikki nafar dasturchi” dasturini amalga oshirishda:

mahallalarda yoshlar yetakchilari tomonidan mahalla faollari ishtirokida axborot texnologiyalari va kompyuter dasturlash sohasiga qiziquvchi yoshlar aniqlanib, ularni ingliz va boshqa xorijiy tillarga o‘qitish hamda sertifikatlar olishini tashkil etish, sertifikat olgan yoshlar to‘g‘risida ma’lumotlarni Raqamli texnologiyalar vazirligining maxsus axborot tizimiga kiritib borish amaliyotini joriy qilish;

Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi tomonidan maxsus axborot tizimiga kiritilgan yoshlarni IT sohasida faoliyat yuritayotgan tashkilotlarga yo‘naltirish va ishga

joylashtirishga koʻmaklashish choralarini koʻrsin.

6. Maktab va maktabgacha taʼlim boʻlimi (E.Kuziyev) bir hafta muddatda 2024/2025-oʻquv yilidan boshlab sinov tariqasida “Mening maktabim” loyihasini amalga oshirish boʻyicha 1 ta maktab taklifini shahar hokimiga kiritsin.

Loyiha doirasida Davlat byudjeti mablagʻlari hisobidan maktablarga bazaviy hisoblash miqdorining 150 barobarida mablagʻ ajratilib, ushbu mablagʻ 5-11-sinf oʻquvchilari tanloviga koʻra, elektron doska, kompyuter, sport jihozlari, kitoblar kabi maktab uchun zarur tovarlarga sarflanishi belgilanganligi inobatga olinsin.

7. Shahar Ishchi guruhi (X.Xoldarov, A.Mamajonov, F.Niyozov, S.Nishankulov, N.Ubaydullayeva) “Oʻzbekiston - 2030” strategiyasida nazarda tutilgan Quvasoy shahrini rivojlantirishning ustuvor yoʻnalishlarini amalga oshirish boʻyicha komissiyalar bilan hamkorlikda davlat va xoʻjalik boshqaruvi organlari, nodavlat notijorat tashkilotlarining Davlat dasturida belgilangan vazifalarni belgilangan muddatlarda sifatli amalga oshirilishini doimiy nazorat qilib, oʻz vaqtida va toʻliq ijro etilishini taʼminlasin.

8. Davlat dasturi bajarilishini tahlil qilish hamda muvofiqlashtirib borish maqsadida **shahar hokimligi huzurida Iqtisodiyot va moliya boʻlimi, Kambagʻallikni qisqartirish va bandlik boʻlimi, tijorat banklari, Soliq, Adliya, Investitsiyalar, sanoat va savdo, tibbiyot birlashmasi, Maktabgacha va maktab taʼlimi boʻlimi, “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazi**dan bir nafardan malakali xodimlarini jalb etgan holda, Monitoring guruhi tashkil etilsin;

**Monitoring guruhi Davlat dasturi amalga oshirilishining borishi toʻgʻrisidagi axborotni har oyda umumlashtirish hamda yakunlarini aniq koʻrsatkichlar va erishilgan ijobiy oʻzgarishlarni, tahliliy axborot koʻrinishida aks ettirgan holda, har oyning 25 sanasiga qadar viloyat hokimligi huzurida tashkil etilgan Monitoring guruhiga taqdim etib borsin.**

9. Xalq deputatlari shahar Kengashi kotibiyati (A.Nazirov)ga:

Davlat dasturi ijrosini samarali, qatʼiy tartib-intizom asosida tashkil etib, oʻn kun muddatda mahalla kesimida amaliy chora-tadbirlarni belgilasin hamda keng jamoatchilik va ommaviy axborot vositalari ishtirokida muntazam ravishda masʼul shaxslarning hisobotini eshitib borsin;

siyosiy partiyalarning shahar Kengashi raislari hamda xalq deputatlari shahar Kengashi deputatlar tomonidan dasturda belgilangan vazifalar ijrosi yuzasidan muntazam oʻrganishlarni amalga oshirish, oʻrganish natijalari boʻyicha doimiy komissiyalar yigʻilishlarida muhokamalar oʻtkazib borish, belgilangan vazifalar ijrosiga masʼul boʻlgan rahbarlarning hisobotlarini eshitib borish tizimini joriy etsin hamda bu borada korhona va tashkilotlar samaradorligini oshirishga qaratilgan takliflarni ishlab chiqsin.

10. Shahar hokimligi Axborot-xizmati (N.Mirzayev), “Isfayram” gazetasi (Oʻ.Karimova) bilan birgalikda muntazam ravishda:

Davlat dasturining maqsad va vazifalarini ommaviy axborot vositalarida, shu jumladan internet axborot tarmog‘ida va ijtimoiy tarmoqlarda keng sharhlab borilishini hamda uning mazmun-mohiyati jamoatchilikka tushuntirilishini;

“O‘zbekiston - 2030” strategiyasi va Davlat dasturi doirasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning borishi va natijalari to‘g‘risidagi xolis va to‘liq ma’lumotlarni muntazam ravishda aholiga yetkazib borilishini ta’minlasin.

11. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilishni o‘z zimmamda qoldiraman.

**Shahar hokimi** **Z.K.To'rakulov**

Quvasoy shahar hokimining
2024-yil 27-martdagi
81-11-167-Q/24-son qaroriga
1-ilova

**Quvasoy shahrida "O'zbekiston - 2030" strategiyasining har bir insonga o'z salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun munosib sharoitlar yaratish yo'nalishi bo'yicha 2024-yilga mo'ljallangan**

## AMALIY TADBIRLAR REJASI

| T/r | Res. bandi | Vazifalar | Amaliy chora-tadbirlar | Ijro muddati | Moliyalashtirish manbalari | Mas'ullar |
|---|---|---|---|---|---|---|
| **I. HAR BIR INSONGA O'Z SALOHIYATINI RO'YOBGA CHIQARISHI UCHUN MUNOSIB SHAROITLARNI YARATISH** | | | | | | |
| **1-maqsad: Maktabgacha ta'lim tizimini yangi bosqichga olib chiqish hamda bolalarning to'liq qamrovini ta'minlash** | | | | | | |
| 1. | **1** | Maktabgacha ta'lim bilan qamrov darajasini **93,0 foizga** yetkazish. | **1. 8 ta** davlat-xususiy sheriklik asosidagi, shu jumladan oilaviy maktabgacha ta'lim tashkilotlarini tashkil etish.<br>**2.** Investitsiya dasturi doirasida **1 ta** maktabgacha ta'lim tashkilotlarini qurish va **2 ta** rekonstruksiya qilish orqali **245 ta** qo'shimcha yangi quvvatlar yaratish.<br>**3.** 6 yoshli bolalarni maktabga tayyorlash tizimi bilan qamrov darajasini **93,0 foizga** yetkazish. | 2024 yil yakuniga qadar | Davlat byudjetidan ajratilgan mablag'lar doirasida | Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi boshlig'i(E.O.Kuziyev) |
| 2. | **2** | Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida kompyuter guruhlarini tashkil etish. | **2 ta** davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarining maktabga tayyorlov guruhlarida zamonaviy ta'lim planshetlari va sensorli ekranli interaktiv doskalardan iborat kompyuter guruhlarini tashkil etish uchun texnikalar xarid qilish. | 2024 yil yakuniga qadar | Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limiga mahalliy byudjetdan ajratilgan mablag'lar doirasida | Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi boshlig'i(E.O.Kuziyev), Iqtisodiyot va moliya bo'limi (SH.Tojimamatov) |

| | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| **2-maqsad: Umumiy o'rta ta'lim tizimida "Ta'lim uchun qulay muhit" dasturini amalga oshirish** | | | | | | |
| 3. | **3** | Yangi maktablarni qurish va mavjudlarini rekonstruksiya qilish hamda ularda zarur shart-sharoitlarni yaratish. | **1 ta** maktabni rekonstruksiya qilish,<br>3 ta joriy ta'mirlash, 2 ta jixozlash. | 2024 yil yakuniga qadar | Respublika byudjetidan ajratilgan mablag'lar doirasida | **Shahar hokimining Qurilish va Ijtimoiy masalalar bo'yicha o'rinbosarlari,** Iqtisodiyot va moliya bo'limi (SH.Tojimamatov), Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi boshlig'i(E.O.Kuziyev) Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi bo'limi (B.Fozilov), |
| 4. | **4** | Umumiy o'rta ta'lim maktablarini mebel, o'quv-laboratoriya asbob-uskunalari, sport anjomlari va texnik vositalar bilan ta'minlash. | **1.** Umumiy o'rta ta'lim muassasalarini birlamchi sport jihozlari va milliy musiqa cholg'u asboblari bilan ta'minlash bo'yicha manzilli dasturni ishlab chiqish va tasdiqlash.<br>**2.** Tasdiqlangan dasturga asosan birlamchi sport jihozlari va milliy musiqa cholg'u asboblarini belgilangan tartibda xarid qilish.<br>**3**. Umumiy o'rta ta'lim muassasalariga o'quv-laboratoriya asbob-uskunalarini belgilangan tartibda xarid qilish. | 2024 yil yakuniga qadar<br><br>2024 yil mart<br><br>2024 yil avgust | Respublika byudjetidan ajratilgan mablag'lar doirasida | Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi boshlig'i(E.O.Kuziyev), Iqtisodiyot va moliya bo'limi (SH.Tojimamatov) |
| 5. | **5** | Maktabgacha va maktab ta'limi tizimidagi umumta'lim maktablarni **toza ichimlik suvi bilan ta'minlash** hamda umumta'lim maktablarining sanitariya-gigiyena infratuzilmasini bosqichma-bosqich ta'mirlash. | **1.** Mahalliy hokimliklar tomonidan toza ichimlik suvi bilan ta'minlanmagan hamda ta'mirtalab sanitariya-gigiyena infratuzilmasi mavjud umumta'lim maktablarini qayta xatlovdan o'tkazish.<br>**2.** Xatlov natijasi asosida loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish va unga asosan zarur bo'lgan mablag'larni ajratish. | 2024 yil mart<br><br>2024 yil aprel | Respublika va mahalliy byudjet mablag'lari | **Shahar hokimining qurilish masalalari bo'yicha o'rinbosari,** "Farg'ona suv ta'minoti" MCHJ Quvasoy filiali (D.Ermatov), Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi boshlig'i(E.O.Kuziyev), Iqtisodiyot va moliya bo'limi (SH.Tojimamatov) |

| | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| 6. | **6** | Maktablarda o‘quv-laboratoriya xonalarini zarur o‘quv jihozlari bilan ta’minlash darajasini oshirish. | **1.** Davlat umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlarining o‘quv-laboratoriya xonalarini o‘quv jihozlari bilan ta’minlanganlik holatini xatlovdan o‘tkazish.<br>**2.** O‘rganishlar natijasiga ko‘ra, ularni zarur o‘quv jihozlari bilan to‘liq ta’minlash yuzasidan takliflarni shakllantirish va belgilangan tartibda Vazirlar Mahkamasiga kiritish. | 2024 yil may<br>2024 yil iyul | – | Shahar hokimligi, Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi boshlig‘i(E.O.Kuziyev), Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (SH.Tojimamatov) |
| **3-maqsad: Umumiy o‘rta ta’lim tizimini yangi bosqichga olib chiqish** | | | | | | |
| 7 | **8** | Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida bilimni baholashning yangi tartibini joriy etish hamda ikkinchi xorijiy til va kasbni o‘rgatishni kengaytirish. | **1.** 2023-2024 o‘quv yili yakunida respublika miqyosida **1 ta** umumta’lim maktablarida bilimni baholashning yangi tartibi bo‘yicha o‘tkazilgan tajriba-sinov natijalarini tahlil qilish.<br>**2.** Tahlillar natijasida yangi tartibni takomillashtirish va 2024-2025 o‘quv yilidan boshlab yangi baholash tizimi joriy etiladigan maktablar sonini<br>**4 ta ga** yetkazish. | 2024 yil iyun<br>2024/2025 o‘quv yilidan boshlab | Respublika va mahalliy byudjetidan ajratilgan mablag‘lar doirasida | Shahar hokimligi, Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi boshlig‘i(E.O.Kuziyev), Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (SH.Tojimamatov) |
| **4-maqsad: Pedagog kadrlar maqomini oshirish, ularning bilimi va malakasini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish** | | | | | | |
| 7. | **10** | Pedagog kadrlar malakasini oshirish imkoniyatlarini kengaytirish. | 1. “El-yurt umidi” jamg‘armasi ko‘magida Maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmasi tizimida faoliyat olib borayotgan xodimlarni xorijiy mamlakatlarga malaka oshirishga yuborish rejasini ishlab chiqish.<br>2. Maktabgacha va umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlari xodimlarini **386 nafar** xodimlarni uzluksiz malakasini oshirib borish.<br>3. Umumiy o‘rta ta’lim maktablari rahbar xodimlari mehnatiga haq to‘lash sharoitlarini yaxshilash bo‘yicha takliflarni ishlab chiqish. | 2024 yil | “El-yurt umidi” jamg‘armasi | Shahar hokimligi, Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi boshlig‘i(E.O.Kuziyev), Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (SH.Tojimamatov), “El-yurt umidi” jamg‘armasi |
| **5-maqsad: Umumiy o‘rta ta’limni rivojlantirish uchun xususiy sektorni keng jalb qilish** | | | | | | |

| | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| 8. | **13** | Nodavlat umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlari **qamrovini** kengaytirish. | **1.** Nodavlat umumta’lim tashkilotlari sonini 4 **taga** yetkazish.<br>**2.** Nodavlat umumta’lim tashkilotlari faoliyatini tahlil qilib borish. | 2024 yil yakuniga qadar | Respublika byudjetidan ajratilgan mablag‘lar | Shahar hokimligi, Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi boshlig‘i(E.O.Kuziyev), Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (SH.Tojimamatov), |
| 9. | | Nodavlat umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlari faoliyatini yo‘lga qo‘yish uchun **1,4 mlrd so‘m** imtiyozli kreditlar ajratish. | 1. Tashabbuskor tadbirkorlar ro‘yxatini shakllantirish, ularning loyiha takliflarini o‘rganish.<br>2. Tarmoq jadvallarini ishlab chiqish, shu asosida belgilangan muddatlarda kredit mablag‘larini ajratish va loyihani foydalanishga topshirilishini ta’minlash. | 2024 yil | Tadbirkorlar va imtiyozli kredit mablag‘lar hisobiga | Shahar hokimligi, Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi boshlig‘i(E.O.Kuziyev), Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (SH.Tojimamatov), |
| **13-maqsad: Aholining o‘rtacha umr davomiyligini oshirish** | | | | | | |
| 10. | **34** | Aholi o‘rtasida **surunkali kasalliklarni barvaqt aniqlash** va ular bilan kasallanish holatlarini keskin kamaytirish. | **1. 18-40 yoshli 41044** nafar aholini profilaktik ko‘rikdan<br>o‘tkazish va natijalariga ko‘ra fuqarolarni sog‘lomlashtirish.<br>**2.** Xavf guruhiga mansub aholini reja asosida flyuorografiya tekshiruvlaridan o‘tkazish. | 2024 yil dekabr | – | **Shahar hokimining o‘rinbosari A.Mamajonov,** Tibbiyot birlashmasi (N.Xojimaxsudov) |
| 11. | **35** | Aholining yuqumli bo‘lmagan **kasalliklarni oldini olish,** ularning xavf omillari, erta aniqlash va davolash bo‘yicha xabardorligini oshirish. | Aholining yuqumli bo‘lmagan kasalliklarni oldini olish bo‘yicha xabardorligini oshirishga qaratilgan **kompleks chora-tadbirlar rejasini** ishlab chiqish va tasdiqlash. Bunda:<br>aholi uchun OAVda,Quvasoy TV kanali orqali munozaralarni oyiga kamida<br>**2 marta muntazam** ravishda namoyish etish va ularning natijalarini tahlil qilish;<br>sog‘lom turmush tarzi haqida tayorlangan aloxida **teleko‘rsatuvlarni** efirga uzatilishi yuzasidan axoli orasida targ‘ibot ishlarini olib borish ;<br>aholiga sog‘lom turmush tarzi olib borish bo‘yicha doimiy ma’lumot berish uchun **(interaktiv) elektron platforma asosida ishlrni tashkillash** | 2024 yil mart | Hisob-kitoblarga ko‘ra | **Shahar hokimining o‘rinbosari A.Mamajonov,** Tibbiyot birlashmasi (N.Xojimaxsudov) |

| | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| **14-maqsad: Aholiga birlamchi tibbiy xizmatlarni yanada yaqinlashtirish** | | | | | | |
| 12. | | **1 ta** oilaviy shifokorlik punktini qayta rekonstruksiya qilish | Yuqori Muyan MFY xududida joylashgan 2 qavatli binoda joylashgan Pastki Muyan OSHPsini qayta ta'mirdan chiqarish uchun loyixa smetasini ishlab chiqish. | 2024 yil | Mahalliy byudjet mablag'lari hisobidan | **Shahar hokimining o'rinbosari A.Mamajonov,** Tibbiyot birlashmasi (N.Xojimaxsudov) |
| 13. | | **Diabet kasalligi** bor bemorlarni davolash qamrovini **100 foizga** yetkazish. | 1. Aholini chuqurlashtirilgan tibbiy ko'rikdan o'tkazish.<br>2. Skrining dasturlarini o'z vaqtida va sifatli amalga oshirish.<br>3. Diabet kasalligi aniqlangan bemorlarni statsionar sharoitda to'liq davolash choralarini ko'rish.<br>4. Bemorlarni bepul dori vositalari bilan ta'minlash.<br>5. Poliklinika va oilaviy shifokorlik punktlarida shifokor oldi ko'rigi va endokrinolog shifokor xonalarini tashkil etish choralarini ko'rish. | doimiy | Hisob-kitoblarga asosan | **Shahar hokimining o'rinbosari A.Mamajonov,** Tibbiyot birlashmasi (N.Xojimaxsudov) |

| | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| 14. | | **Yurak-qon tomir** kasalligi bor bemorlarni davolashni **100 foizga** yetkazish. | 1. Tibbiyotning birlamchi bo'g'in muassasalarida aholining ommaviy tibbiy ko'riklarini o'tkazish.<br>2. Yurak-qon tomirkasalligi bor bemorlarni skrining dasturlari bilan qamrabolish.<br>3. Kasallik aniqlangan bemorlarni ambulator sharoitda zarur dori vositalari bilan ta'minlash, zarur hollarda ularni statsionar davolash.<br>4. Ehtiyojmand aholini bepul asosda "Enalapril" dori vositasi bilan ta'minlash.<br>5. Shahar ko'p tarmoqli poliklinikalarida yuqumli bo'lmagan kasalliklar, shu jumladan yurak-qontomir kasalliklari va ularning asoratlari profilaktikasi, bemorlarda o'z kasalligini doimiy nazorat qilib borish ko'nikmasini shakllantirishga qaratilgan "**Profilaktika maktablari**"ni tashkil etish.<br>6. Shahar tibbiyot birlashmasi Markaziy shifoxonasining davolash bo'limida Kardiologiya o'rin joylarini ni tashkil etish. | doimiy | Byudjetdan ajratilgan mablag'lar va davlat tibbiy sug'urta jamg'armasi mablag'lari | **Shahar hokimining o'rinbosari A.Mamajonov,** Tibbiyot birlashmasi (N.Xojimaxsudov) |
| 15. | | Birlamchi bo'g'in muassasalariga **55 foizga profilaktika maqsadidagi qatnovlar ulushini** oshirish. | 1. Profilaktik tibbiy ko'riklarga jalb qilinadigan aholi qatlamini belgilab olish va ro'yxatini shakllantirish.<br>2. Profilaktik ko'riklarni kunlik, haftalik, oylik va yillik rejalarini ishlab chiqish.<br>3. Patranaj hamshiralar tomonidan aholi o'rtasida sog'lom turmush tarzi, profilaktik tibbiy ko'riklar ahamiyati to'g'risida targ'ibot ishlarini olib borish orqali profilaktik ko'riklarga jalb qilish. | 2024 yil | Ajratilgan byudjet mablag'lari hisobidan | **Shahar hokimining o'rinbosari A.Mamajonov,** Tibbiyot birlashmasi (N.Xojimaxsudov) |
| **15-maqsad: Bolalar o'rtasidagi irsiy kasalliklarning oldini olish va davolash samaradorligini oshirish** | | | | | | |

| | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| 16. | **38** | Bolalar orasida ommaviy va selektiv skrining turlarini **8 ta**ga yetkazish.<br>Irsiy kasalliklar bilan kasallangan bolalarni dori vositalari, tibbiy buyumlar va shifobaxsh ozuqalar bilan **98.9 foiz** ta'minlash.<br>Bolalarda irsiy kasalliklar bo'yicha selektiv skrining tekshiruvlar turlarini **4 ta**ga yetkazish. | **1. 3-18 yoshli 25244 nafar** bolalarni onkogematologik kasalliklarni erta aniqlash bo'yicha ommaviy va selektiv skriningdan o'tkazish.<br>**2. 2450 nafar** chaqaloqlarni tug'ma gipotireoz, fenilketonuriya kasalliklarini aniqlash bo'yicha neonatal skriningdan o'tkazish.<br>**3.** 6 ta lizosomal (Goshe, Pompe, Fabri, Krabbe, A va V turdagi Nimmana-Pika kasalliklari hamda I tipi) kasalliklarga ko'rsatma asosida xavf guruhiga kiruvchi chaqaloqlarni selektiv skrining o'tkazish.<br>**4.** tug'ruq muassasasida yangi tug'ilgan chaqaloqlarni eshitish qobiliyatini aniqlash bo'yicha audioskriningdan o'tkazish. | Tarmoq rejasiga muvofiq | Davlat byudjetidan ushbu maqsadlar uchun ajratilgan mablag'lar doirasida | **Shahar hokimining o'rinbosari A.Mamajonov,** Tibbiyot birlashmasi (N.Xojimaxsudov) |
| **16-maqsad: Onalar va bolalar o'limini qisqartirish, sog'lom bolalikni ta'minlash** | | | | | | |
| 17. | **39** | Tug'ish yoshidagi va homilador ayollarga hamda bolalarga **5 turdagi vitaminlar, yod va foliy kislotasini bepul tarqatish** ishlari samaradorligini oshirish.<br>Tug'ish yoshidagi ayollarni temir va **foliy kislotasi bilan 95 foiz** ta'minlash. | **Quyidagilar:**<br>1100 **ming nafar homilador va 1350 ming nafar bola emizuvchi ayollarni yod preparati bilan;**<br>**16511 nafar 35 yoshgacha tug'ish yoshidagi ayollarni temir va foliy kislotasi preparati bilan bepul ta'minlash.** | 2024 yil dekabr | Davlat byudjetidan ushbu maqsadlar uchun ajratilgan mablag'lar doirasida va xalqaro moliya institutlari mablag'lari | **Shahar hokimining o'rinbosari A.Mamajonov,** Tibbiyot birlashmasi (N.Xojimaxsudov)**)** |
| 18. | **40** | Bolalarning sog'lom ovqatlanishini ta'minlash orqali **ratsional o'sishi va rivojlanishi, aqlan barkamol bo'lib shakllanishini** ta'minlash. | **1. 6-23 oylik** bo'lgan jami **3675** nafar bolani mikronutriyent kukuni bilan bepul ta'minlash.<br>**2. 16496 nafar 2-10 yoshdagi** bolalarni gelmintoz profilaktikasi bo'yicha maxsus preparatlar bilan **bepul ta'minlash**.<br>**3.** Mazkur maxsus preparatlarning **yaroqlilik muddati va sifat sertifikatlarini** ularni qabul qiluvchi bolalar **ota-onalariga havola etib borish**. | Doimiy | Davlat byudjetidan ushbu maqsadlar uchun ajratilgan mablag'lar doirasida | **Shahar hokimining o'rinbosari A.Mamajonov,** Tibbiyot birlashmasi (N.Xojimaxsudov) |

| | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| 19. | **42** | Boshqariluvchi yuqumli kasalliklar bo‘yicha epidemiologik barqarorlikni ta’minlash maqsadida **profilaktik emlash tadbirlarini** izchil amalga oshirish. | **3 ming 187** nafar bolani **13 turdagi** vaksinalar bilan boshqariluvchi yuqumli kasalliklarga qarshi emlash. | 2024 yil yakuniga qadar | Davlat byudjetidan ushbu maqsadlar uchun ajratilgan mablag‘lar | **Shahar hokimining o‘rinbosari A.Mamajonov,** Tibbiyot birlashmasi (N.Xojimaxsudov) |
| 20. | | Besh yoshgacha bolalar orasidagi o‘limni oldini olish, 2024 yilda **7,2 promillega** kamaytirish. | 1. Shahar tibbiyot birlashmasi va oilaviy polkilinikalar tomonidan besh yoshgacha bo‘lgan bolalarni chuqurlashtirilgan tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish.<br>2. Besh yoshgacha bo‘lganbolalarni reja asosida universal-progressiv patronaj bilanqamrabolish.<br>3. Bolalarga o‘z vaqtida va sifatli ambulator va statsionar yordam ko‘rsatishni ta’minlash.<br>4. Milliy emlashkalendarig amuvofiq qamrovni 100 foizga yetkazish.<br>5. Shahar ko‘p tarmoqli poliklinikalarida Bolalar bo‘limlarini tashkil etish yuzasidan takliflar kiritish. | doimiy | Respublika va mahalliy byudjet mablag‘i | **Shahar hokimining o‘rinbosari A.Mamajonov,** Tibbiyot birlashmasi (N.Xojimaxsudov) |
| **17-maqsad: Onkologik kasalliklarni erta aniqlash va o‘lim ko‘rsatkichini kamaytirish** | | | | | | |
| 21. | | Xavfli o‘sma kasalliklaridan 1 yilgacha o‘lim ko‘rsatkichini kamaytirish. | 1. Aholi orasida onkologik kasalliklar belgi bermasdan oldin, rejali va doimiy ko‘rikdan o‘tish bo‘yicha profilaktika tadbirlarini o‘tkazish.<br>2. Xavfli o‘sma kasalliklariga chalingan bemorlarning davolash kurslarini ko‘paytirish.<br>3. Yangi zamonaviy ximioterapevtik, va immun dori vositalari orqali tekshirish jarayonlarini tezlashtirish va o‘lim ko‘rsatkichlarini 5,3 foizgacha kamaytirish. | 2024 yil | - | **Shahar hokimining o‘rinbosari A.Mamajonov,** Tibbiyot birlashmasi (N.Xojimaxsudov) |
| **19-maqsad: Sog‘lom va faol keksalikni ta’minlash** | | | | | | |

| | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| 22. | | 55 va undan katta yoshdagi aholini har yili **profilaktik ko‘rikdan o‘tkazish va sog‘lomlashtirish.** | 1. Keksa yoshdagi aholining salomatligini va faolligini baholash tizimini joriy etish.<br>2. Katta yoshdagi aholini har yili profilaktik ko‘rikdan o‘tkazish.<br>3. Surunkali kasalligi aniqlanganda ambulator va statsionar sog‘lomlash-tirishni tashkillashtirish.<br>4. Yuqumli bo‘lmagan kasallikka chalingan keksa yoshdagi bemorlar va ularning farzandlarini o‘zini o‘zi parvarish qilishga o‘rgatish maqsadida ko‘p tarmoqli markaziy poliklinikalarda “Profilaktika maktabi” mashg‘ulotlarini o‘tkazish. | 2024 yil | - | **Shahar hokimining o‘rinbosari A.Mamajonov,** Tibbiyot birlashmasi (N.Xojimaxsudov) |
| **20-maqsad: Aholi orasida to‘g‘ri ovqatlanish va sog‘lom turmush tarzini shakllantirish** | | | | | | |
| 23. | **47** | Aholi orasida to‘g‘ri ovqatlanish va sog‘lom turmush tarzini shakllantirish orqali **ortiqcha vaznga ega** va **semizligi** mavjud aholi ulushini kamaytirib borish, shuningdek, **anemiya** va **ichak infeksiyalari** bilan kasallanish darajasini kamaytirish. | **1.** Aholiga o‘z sog‘lig‘i va ovqatlanishini nazorat qilish va to‘g‘ri ovqatlanish bo‘yicha mobil ilova yaratish.<br>**2.** Har bir xavf guruhi va kasallik turlari uchun parhez ovqatlanish bo‘yicha tavsiyalarni ishlab chiqish.<br>**3.** Yoshi, tana tuzilishi, turmush tarzi va kasalliklarga moyilligidan kelib chiqib, kattalar va keksalar uchun to‘g‘ri ovqatlanish, sog‘lomlashtirish mashqlari va gigiyena qoidalari to‘plamini yaratish. | 2024 yil dekabr<br><br>2024 yil iyul<br><br>2024 yil dekabr | Davlat byudjetidan ushbu maqsadlar uchun ajratilgan mablag‘lar doirasida | **Shahar hokimining o‘rinbosari A.Mamajonov,** Tibbiyot birlashmasi (N.Xojimaxsudov) |
| **22-maqsad: Professional ijtimoiy xizmatlarni ko‘rsatish tizimini tubdan takomillashtirish** | | | | | | |

| | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| 24. | **52** | Ijtimoiy himoya qilish tizimi orqali har bir mahalladagi ijtimoiy himoyaga muhtoj aholini **to‘liq qamrab olish.** | **1.** Har bir mahalladagi ijtimoiy himoyaga muhtoj aholini to‘liq qamrab olish maqsadida oila soni, ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi guruhlariga asosan ijtimoiy xodimlarni “**hudud - uchastka - mahalla” tamoyili** asosida biriktirilishini ta’minlash.<br>**2.** Og‘ir hayotiy vaziyatga tushib qolgan oilalarga kompleks ijtimoiy yordamlarni ko‘rsatishni keys-menejment tizimi orqali bosqichma-bosqich yo‘lga qo‘yish. | 2024 yil iyun | – | **Shahar hokimining o‘rinbosari A.Mvamajonov,** “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazi (O‘.Karimov), Telekoomunikatsiyalar bog‘lanmasi (A.Shakirov), Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi (E.Toshbekov) |
| **23-maqsad: Nogironligi bo‘lgan shaxslarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha yangi tizimni yaratish hamda ular uchun qulay va maqbul muhitni yaratish** | | | | | | |
| 25. | **57** | Nogironligi bo‘lgan shaxslarga munosib ish o‘rinlari yaratish orqali ular bandligini ta’minlashni **2 barobarga** oshirish. | Nogironligi bo‘lgan shaxslarning mehnat bozorida ishtirokini tahlil qilish asosida ularning bandligini ta’minlashga nodavlat notijorat tashkilotlarini jalb qilish uchun **ijtimoiy buyurtma loyihalarini amalga oshirish**. | 2024 yil sentabr | Ijtimoiy himoya milliy agentligi mablag‘lari va xalqaro moliya institutlari mablag‘lari | **Shahar hokimining o‘rinbosari A.Mamajonov,** Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi (E.Toshbekov), “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazi (O‘.Karimov), Tibbiyot birlashmasi (N.Xojimaxsudov) |
| 26. | **59** | Nogironligi bo‘lgan shaxslarning davlat organlari va tashkilotlariga **murojaat qilish huquqlari kafolatini** kuchaytirish. | **1.** Davlat organlari va tashkilotlariga nogironligi bo‘lgan shaxslarning murojaatlar bilan kirishi uchun shart-sharoitlarni yaratish.<br>**2.** Eshitishi va nutqi bo‘yicha nogironligi bo‘lgan shaxslarning surdotarjimon xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish. | 2024 yil davomida | Hisob-kitoblarga asosan Ijtimoiy himoya davlat jamg‘armasi mablag‘lari | **Shahar hokimining o‘rinbosari A.Mamajonov,** “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazi (O‘.Karimov), Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi bo‘limi (S.Ashurov) |
| **25-maqsad: Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash tizimini kuchaytirish, ularning huquq va qonuniy manfaatlarini ta’minlash, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy faolligini oshirish va gender tenglikni ta’minlash** | | | | | | |

| | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| 27. | **64** | **Ijtimoiy himoyaga muhtoj** oilalar va ularning farzandlarini qo‘llab-quvvatlash. | 13 nafar jarrohlik operatsiyasiga muhtoj xotin-qizlarni sog‘lom hayotga qaytarish choralarini ko‘rish. | 2024 yil davomida reja asosida | Oila va xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash davlat maqsadli jamg‘armasiga ajratilgan mablag‘lar, Ijtimoiy himoya milliy agentligi jamg‘armasi, Sog‘liqni saqlashni rivojlantirish jamg‘armasi, Bolalar fondi, xalqaro moliya institutlari mablag‘lari | **Shahar hokimining o‘rinbosari N.Ubaydullayeva** Sog‘liqni saqlash bo‘limi (N.Xojimaqsudov), Ijtimoiy himoya agentligi shahar bo‘limi (O‘.Karimov), Oila va xotin-qizlar bo‘limi (N.Ubaydullayeva), Shahar hokimlikligi |
| 28. | | Og‘ir ijtimoiy ahvolga tushib qolgan turarjoyga muhtoj **4 nafar** xotin-qizlarni uy-joy bilan ta’minlash. | 1. Xotin - qizlar muammolari bilan ishlash tizimini raqamlashtirish, shu jumladan Xotin - qizlar muammolarini o‘rganish va ularni tizimli ravishda hal etish modulini yaratish va amaliyotga tatbiq etish.<br>2. Og‘ir ijtimoiy ahvolga tushib qolgan turar-joyga muhtoj xotin-qizlarni aniqlash va ro‘yxatini shakllantirish.<br>3. Shakllantirilgan ro‘yxatga asosan 2024-2025 yillarda og‘ir ijtimoiy ahvolga tushib qolgan turar-joyga muhtoj xotin-qizlarni uy-joy bilan ta’minlash. | yil davomida | Hisob-kitoblarga asosan, Xotin-qizlarni va oilani qo‘llab-quvvatlash davlat maqsadli jamg‘armasi mablag‘lari, Mahalliy byudjet va homiylik asosida | **Shahar hokimining o‘rinbosari N.Ubaydullayeva** Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi bo‘limi (X.Mamaraximov), Shahar hokimlikligi |
| 29. | | Davlat tomonidan ehtiyojmand xotin-qizlarga maxsus jarrohlik amaliyotini o‘tkazish qamrovini oshirish. | 1. Shahardagi ehtiyojmand xotin-qizlarga maxsus jarrohlik amaliyotini o‘tkazish bo‘yicha manzilli ro‘yxatlarini shakllantirish.<br>2. Shakllantirilgan manzilli ro‘yxat asosida Ishchi guruh tuzgan holda o‘rganish.<br>3. Shakllantirilgan manzilli ro‘yxatga asosan ehtiyojmand xotin-qizlarga maxsus jarrohlik amaliyotini o‘tkazish ishlarini boshlash. | 2024 yil yanvar<br><br>2024 yil dekabr | - | **Shahar hokimining o‘rinbosari N.Ubaydullayeva** Oila va xotin-qizlar bo‘limi (N.Ubaydullayeva), Sog‘liqni saqlash bo‘limi (N.Xojimaqsudov), Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (SH.Tojimamatov) |

| | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| 30. | **66** | Xotin-qizlar **bandligini ta'minlashga** koʻmaklashish, ular oʻrtasida **tadbirkorlikni rivojlantirish**, **kasb-hunarga oʻqitish** va oʻzini oʻzi band qilish. | **1.** Xotin-qizlar bandlik dasturini tasdiqlash.<br><br>**2.** Dastur doirasida xotin-qizlarning kichik biznes loyihalariga imtiyozli kreditlar ajratish.<br><br>**3.** Har bir hududda xotin-qizlar hunarmandchilik markazlari va klasterlarini tashkil qilish. | 2024 yil mart<br>aniqlangan loyihalar asosida<br><br>Hamkorlik dasturi asosida | – | **Shahar hokimining oʻrinbosari N.Ubaydullayeva**<br>Savdo-sanoat palatasi hududiy boʻlimi (B.Qurbonov), Kambagʻallikni qisqartirish va bandlik boʻlimi (E.Tashbekov), "Hunarmand" uyushmasi shahar boʻlimi (X.Xomidova)**,** shahar hokimligi |
| 31. | **71** | Xotin-qizlar **tadbirkorligini qoʻllab-quvvatlash,** xotin-qizlar tadbirkorlik markazlari faoliyatini takomillashtirish. | **1.** Xotin-qizlar tadbirkorlik markazlari faoliyatini takomillashtirish.<br>**2.** Ba'zi yoʻnalishlar boʻyicha ikki oygacha boʻlgan oʻquv kurslarini tashkil qilish.<br>**3.** Xotin-qizlar tadbirkorlik markazlarida xotin-qizlarni bepul va pullik oʻqitish tizimini yoʻlga qoʻyish. | 2024 yil may<br><br>2024 yil iyul<br><br>2024 yil avgust | Hisob-kitoblar asosida, ijrochilarning byudjetdan tashqari mablagʻlari | **Shahar hokimining oʻrinbosari N.Ubaydullayeva**<br>Savdo-sanoat palatasi hududiy boʻlimi (B.Qurbonov), Kambagʻallikni qisqartirish va bandlik boʻlimi (E.Tashbekov) shahar hokimlikligi |
| 32. | **73** | Joylarda xotin-qizlar tomonidan ishlab chiqarilgan **tayyor mahsulotlarni sotishga koʻmaklashish**. | **1.** Mahalliy **yirik ishlab chiqaruvchilar** bilan aloqa oʻrnatish.<br>**2.** Xotin-qizlar tomonidan tayyorlangan mahsulotlarni **mahalliy va jahon logistika kompaniyalari tomonidan xaridorlarga yetkazib berish tizimini** yoʻlga qoʻyish imkoniyatlarini oʻrganib chiqish.<br>**3.** Oʻrganish natijalari boʻyicha elektron portallar orqali xotin-qizlar tomonidan tayyorlangan mahsulotlarni realizatsiya qilinishini tashkil etish.<br>**4.** Xotin-qizlarni ushbu portallar orqali oʻz mahsulotlarini taklif etish koʻnikmalariga oʻrgatish. | 2024 yil<br><br>2024 yil mart<br><br><br>Muntazam<br><br><br>Reja asosida | – | **Shahar hokimining oʻrinbosari S.Nishonqulov, N.Ubaydullayeva**<br><br>Investitsiyalar, sanoat va savdo boʻlimi,<br>Savdo-sanoat palatasi hududiy boʻlimi (B.Qurbonov),<br>shahar hokimlikligi |
| **26-maqsad: Nuroniylarni har tomonlama qoʻllab-quvvatlash** | | | | | | |

| | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| 33. | | Nuroniylarga tizimli ravishda **jismoniy tarbiya va sport** bilan shug'ullanishlari uchun zarur sharoitlarni yaratib borish, "Nuroniylar maskani" majmualarida va mahallalarda turli **madaniy-ma'rifiy tadbirlari** o'tkazish. | 1. Shahardagi **"Nuroniylar maskani" majmualari va mahallalarga ta'lim va madaniyat muassasalarini** biriktirish hamda ularda madaniy-ma'rifiy va sport tadbirlarini o'tkazish. Tadbirlarga nuroniylar va yoshlarni jalb etish.<br>2. 3 500 nafar nuroniylarni respublika bo'ylab diqqatga sazovor joylar, xususan tarixiy shaharlar, qadimiy obidalar, ziyoratgohlar va yurtimizning so'lim go'shalariga sayohatlar tashkil etish. | yil davomida<br><br>2024 yil may-avgust oylari | "Nuroniy" jamg'armasi mablag'i | **Shahar hokimining o'rinbosari N.Ubaydullayeva**<br>"Nuroniy" jamg'armasi shahar bo'limi (SH.Dadaboyev), shahar hokimligi |
| **27-maqsad: Mamlakatda kambag'allik darajasini qisqartirish** | | | | | | |
| 34. | **75** | Kambag'al oilalar muammolarini hal etish orqali mamlakatda **kambag'allik darajasini kamaytirish**. | Oilalarni kambag'allikdan chiqarish bo'yicha ishlab chiqilgan **"Individual dasturlar"** doirasida kambag'allik darajasini **2024 yil yakuni bilan**<br>**8,3 foizdan 7,8 foizga kamaytirish**.<br>Bunda kambag'al oilalar a'zolarining:<br>**1500 nafar**ini doimiy ish o'rinlariga ishga joylashtirish;<br>**599 nafar**iga imtiyozli kredit va subsidiya ajratish;<br>**290 nafar**ini kasb-hunar va tadbirkorlik ko'nikmalariga o'qitish; | 2024 yil davomida | Hisob-kitoblarga asosan | **Shahar hokimining birinchi o'rinbosari X.Xoldarov**<br>Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limi |
| **28-maqsad: Aholini daromadli mehnat bilan band qilish, ijtimoiy sug'urta tizimini takomillashtirish** | | | | | | |
| 35. | **77** | Aholini mehnat faoliyatiga jalb qilish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish orqali **ishsiz aholini ishga joylashtirishga** ko'maklashish. | Bandlik organlarida ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini va natijadorligini oshirish orqali **1,0 ming** nafar aholini mehnat faoliyatiga jalb qilish. | 2024 yil davomida | Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasi, Jamoat ishlari jamg'armasi mablag'lari, xususiy sektor mablag'lari | **Shahar hokimining birinchi o'rinbosari X.Xoldarov**<br>Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limi,<br>Savdo-sanoat palatasi shahar bo'limi,<br>Oila va xotin-qizlar bo'limi,<br>Yoshlar ishlari agentligi shahar bo'limi,<br>Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi |

| | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
